

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI



STAJYOR-TADQIQOTCHILIK, TAYANCH DOKTORANTURA VA  
DOKTORANTURAGA KIRISH IMTIHONI

**D A S T U R I**

Ilmiy ixtisoslik: 08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti”

Toshkent – 2025

Dastur Toshkent arxitektura-qurilish universiteti ilmiy-texnik kengashida ko'rib chiqilgan va 2025-yil "4" sentyabrda "2" - sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

#### Tuzuvchilar:

- N.Sh. Axmedova – TAQU "Iqtisodiyot va ko'chmas mulk" kafedrasini mudiri, PhD.  
D.SH. Mirdjalilova – TAQU "Iqtisodiyot va ko'chmas mulk" kafedrasini professori v.b., PhD.  
Z.M. Abduvaliyev – TAQU "Iqtisodiyot va ko'chmas mulk" kafedrasini dotsenti, PhD.  
B.B. Salimov – TAQU "Iqtisodiyot va ko'chmas mulk" kafedrasini dotsenti, PhD.

#### Taqrizchilar:

- A.N. Djabriyev – TAQU "Iqtisodiyot va ko'chmas mulk" kafedrasini professori, iqtisodiyot fanlari doktori  
M.S. Saidov – Shaxrisabz davlat pedagogika instituti rektori, professor, iqtisodiyot fanlari doktori

Ushbu dastur "Iqtisodiyot va ko'chmas mulk" kafedrasining 2025-yil 08/08/25  
dagi 1 - son majlisida ko'rib chiqilgan.

"Iqtisodiyot va ko'chmas mulk"  
kafedrasini mudiri



N.Sh. Axmedova

#### 1. Kirish

Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim to'g'risidagi nizom" va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi 606-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tartibi to'g'risidagi nizom" asosida tayyorlangan.

Mazkur dasturda 08.00.03 – "Sanoat iqtisodiyoti" ilmiy ixtisosligi bo'yicha stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va (yoki) doktoranturada o'qishga qabul imtihoni va suxbat o'tkazish tartibi va uni baholash tizimiga oid masalalar yoritilgan. Ushbu dastur Toshkent arxitektura-qurilish universitetiga 08.00.03 – "Sanoat iqtisodiyoti" ilmiy ixtisosligi bo'yicha stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va (yoki) doktoranturaga kirish uchun hujjat topshiruvchi talabgorlar va qabul komissiyasi a'zolari uchun mo'ljallangan.

#### 2. Kirish imtihonining maqsad va vazifalari

Ushbu dastur 08.00.03 – "Sanoat iqtisodiyoti" ilmiy ixtisosligi pasporti asosida ishlab chiqildi.

Kirish imtihonining maqsadi stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va (yoki) doktoranturaga kirish talabgorlarining (bundan keyin talabgorlar) tayyorgarlik darajasini aniqlash va ularning doktoranturada o'qish uchun qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq keyingi ta'lim olish qobiliyatini baholash, tadqiqotchilarda san'at tarmoqlarining rivojlanish qonuniyatlarini chuqur tahlil qila olish, iqtisodiy jarayonlarni baholash va ilmiy izlanish olib borish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdir.

Shuningdek, ushbu dastur bo'lajak talabgorlarning sanoat iqtisodiyoti sohasidagi ilmiy yangiliklarni anglash, xalqaro tajribani o'rganish va milliy sanoat siyosatini rivojlantirishga ilmiy asoslangan takliflar berish salohiyatini oshirishni ko'zda tutadi.

#### 3. Talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar

Kirish imtihonlari dasturiga doktoranturada ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash dasturi bo'yicha 08.00.03 – "Sanoat iqtisodiyoti" ilmiy mutaxassisligi bo'yicha mutaxassis yoki magistr o'zlashtirishi kerak bo'lgan asosiy savollar kiritilgan.

Talabgor ilmiy mutaxassislik sohasidagi asosiy nazariy ma'lumotlarni bilishi, ushbu ma'lumotlarning amaliy qo'llanilishini, berilgan muammolarni hal qilish usullarini bilishi va terminologiyani o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

## I - qism

### Tayanch doktoranturaga kirish imtihonini tashkil qilish

#### 4. Kirish imtihoni shakli va davomiyligi

Tayanch doktoranturaga kirish imtihoni 4 ta savoldan iborat bo'lib, dastlabki 3 ta savol yozma shaklda, 4-savol og'zaki suhbat shaklda o'tkaziladi.

1–3-savollar bo'yicha talabgorlarga yozma javob tayyorlash (yozish) uchun 90 daqiqadan ko'p bo'lmagan vaqt beriladi.

#### 4-savol (og'zaki shaklda)

Talabgorga 10–15 daqiqa tayyorlanish uchun vaqt beriladi, javobni imtihon komissiyasi a'zolari tinglaydi.

**Savol:** Siz tanlagan ilmiy yo'nalish bo'yicha dissertatsiya mavzusi doirasida ilmiy tadqiqot konsepsiyasini ishlab chiqing: mavzuning dolzarbligi, maqsadi, asosiy vazifalari, tadqiqot metodlari va kutilayotgan ilmiy natijalarini qisqacha bayon qiling.

#### 5. Baholash mezonlari

Kirish imtihonining natijasi 100 ballik tizimda baholanadi. 1–3-savollar uchun yozma javoblar, 4-savol uchun og'zaki javob baholanadi. Har bir savol maksimal 25 ball bilan quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

#### 1–3-savollar uchun yozma javoblarni baholash mezonlari

| Mezon                                                                                     | Ballar miqdori |
|-------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|
| Javob to'liq, izchil va mantiqiy, mavzu chuqur yoritilgan, savollarga aniq javob berilgan | 25             |
| Xatolar bilan, lekin asosiy qism to'g'ri va tushunarli yoritilgan                         | 15             |
| Mavzuning faqat asosiy qismi qisman yoritilgan, to'liq emas                               | 10             |
| To'liq bo'lmagan, jiddiy xatolar bor                                                      | 5              |
| Javob tayyorlanmagan yoki noto'g'ri                                                       | 0              |

#### 4-savol uchun og'zaki suhbatni baholash mezonlari

| Ko'rsatkichlar                      | Tavsifi                                                  | Ball   |
|-------------------------------------|----------------------------------------------------------|--------|
| Mavzuning dolzarbligi               | Tanlangan mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan | 5 ball |
| Maqsad va vazifalar                 | Maqsad va vazifalar aniq va mantiqan bog'langan          | 5 ball |
| Tadqiqot metodlari                  | Ilmiy usullar to'g'ri tanlangan va izohlangan            | 5 ball |
| Kutilayotgan natijalar              | Ilmiy yangilik va amaliy ahamiyat ko'rsatib berilgan     | 5 ball |
| Mantiqiylik va o'ziga xos madaniyat | Javob izchil, tushunarli va ilmiy uslubda ifodalangan    | 5 ball |

#### 6. Yakuniy ballar teng bo'lganda ustunlik berish tartibi

Agar stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga kirish imtihonlari yoki suhbat natijalari bo'yicha bir nechta talabgorlarga qo'yilgan yakuniy ballar teng bo'lsa, quyidagi ustunliklar qo'llaniladi:

#### a) Stajyor-tadqiqotchilik va tayanch doktorantura uchun:

- magistraturani a'lo baholar bilan tamomlaganlarga;
- mualliflik guvohnomalari va patentlarga ega bo'lganlarga;
- ilmiy maqolalari, jumladan, xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilganlarga.

#### b) Doktorantura uchun:

- 5 yildan ortiq ilmiy-pedagogik staajga ega bo'lganlarga;
- mualliflik guvohnomalari va patentlarga ega bo'lganlarga;
- monografiyaga ega bo'lganlarga (ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun);
- dissertatsiya mavzusi bo'yicha tegishli ilmiy jurnallarda, jumladan xorijiy jurnallarda ko'p miqdorda ilmiy maqolalar chop etganlarga;
- dissertatsiya tadqiqotining 50 foizdan ortiq qismini bajarganlarga.

#### Tayanch doktoranturaga kirish imtihonining bo'limlari va mavzulari ro'yxati

#### 1. Qurilish - milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i

Qurilish va uning milliy iqtisodiyot rivojidagi roli va o'zmi. Qurilish-moddiy ishlab chiqarishning yirik yetakchi tarmog'i sifatida. Qurilish tarmog'i barcha tarmoqlar uchun moddiy boylik yaratib beruvchi soha. Qurilish va aholining ish bilan bandligi masalasi. Mustaqillik yillarida qurilish tarmog'ining rivojlanish yo'llari va asosiy yakunlari. O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ining asosiy ko'rsatkichlari va ularning dinamikasi. Qurilish tarmoqlarining o'sishi tendensiyasi-qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatining mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi.

#### 2. Qurilish tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar

Tuzilma siyosati, uning mohiyati va ahamiyati. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va qurilish tarmog'ining shakllanishi. Qurilish tarmog'i tuzilmasi va uni belgilovchi omillar. Qurilishning tarmoqlarga bo'linishi va tarmoq tuzilishi. Qurilish tarmoq tuzilishining ko'rsatkichlari. Qurilish tarmoq tuzilmasining progressivlik mezonlari. Qurilish tarmoq tuzilishini belgilovchi omillar. Tarmoq tuzilmasi o'zgarishining asosiy tendensiyasi. Qurilishning zamonaviy tarmoq tuzilmasi va uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari. Tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish borasidagi yaqin va uzoq istiqboldagi ustuvor vazifalar.

2017-2021 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturining maqsadi va vazifalari.

#### 3. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish

Milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida qurilish, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish; ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish; yuqori texnologiyalar asosida mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali qurilishni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish; iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish; prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash; ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, zamonaviy qurilish materiallari importining o'rini bosish, tarmoqlararo qurilish kooperatsiyasini kengaytirish;

Iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;

Faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish; xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish; eksport faoliyatini liberalizatsiya va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish; yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

#### 4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustavor mavqei yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish

Xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklavlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi» degan tamoyilni amalga oshirish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish; davlat mulkini xususiyashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiyashtirilgan ob'ektlar bazasida xususiy

tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish; investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish; korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish; tadbirkorlik sub'ektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish; mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

#### 5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, qurilish, sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash; hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, qurilish, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish; yangi qurilish korxonalari va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish; sanoat, qurilish va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish; qurilish korxonalari va boshqa ishlab chiqarish ob'ektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

#### 6. Qurilishda zamonaviy boshqaruv tizimi

Boshqaruv ob'ektiv zaruriyat va maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida. Qurilishni va umumiy iqtisodni ilmiy asosda boshqarishni uyushtirish. Qurilishni ilmiy boshqarishning muhim muammolari. Boshqaruvning mohiyati, ahamiyati va vazifalari. Boshqaruvning asosiy tamoyillari va usullari. Bozor talablariga moslashtirilgan prognozlarni ishlab chiqish. Qurilishda barqarorlik tamoyili. Ishlab chiqarish va mehnatni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish. Boshqarishning ilmiylilik, tejamkorlik, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish tamoyillari. Qurilish boshqaruvining iqtisodiy, ijtimoiy, ruhiy va huquqiy usullari. Boshqaruvning zamonaviy tuzilishi. Boshqarishni takomillashtirishning zamonaviy asosiy yo'nalishlari.

## 7. Qurilish ishlab chiqarishini bashoratlash va rejalashtirish

Prognostlash: mohiyati, ahamiyati, mazmuni. 2017-2021 yillarga mo'ljallangan qurilishni rivojlantirish bo'yicha bashoratlar va ularga erishishning asosiy yo'llari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirishning mohiyati va ahamiyati, vazifalari va tamoyillari. Tarmoq va korxona darajasida qurilish ishlab chiqarishini rejalashtirishning xususiyatlari va uslubiy asoslari. Qurilish tarmoqlarining joriy va istiqbolli faoliyatini rejalashtirishda shartnoma munosabatlarining ahamiyati va o'rni. Rejalashtirishning tamoyillari va usullari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalar tizimi. Reja - birinchi hujjat va rejalashtirishning natijasi sifatida. Rejalarning turlari: indekativ, strategik, biznes-reja. Ishlab chiqarish rejasini tuzib chiqish va tasdiqlashni tashkil etish. Rejalashtirishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

## 8. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish

Qurilishda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllari va ularning o'zaro bog'liqligi. Konsentratsiyalashtirish, uning shakllari va ko'rsatkichlari. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda kichik va xususiy korxonalarining ustuvorligi. Maxalliyashtirish, uning mohiyati, ahamiyati va mazmuni. Maxalliyashtirilgan ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish - inqirozga qarshi choralar dasturining eng ko'plab masalalaridan biri ekanligi.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, uning shakllari va ko'rsatkichlari. Kooperativlashtirish tushunchasi, uning shakllari va darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Qurilish korxona (firma)lari o'rtasidagi ishlab chiqarish iqtisodiy aloqalarining turlari va ularni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Diversifikatsiyalash. Uning mohiyati, ahamiyati va mazmuni. Iqtisodiyotni, jumladan, qurilishni diversifikatsiya qilishning eng muxim ustuvor yo'nalishi.

## 9. Qurilish ishlab chiqarishida baho va baholash

Davlatning baho siyosati va uni amalga oshirish zaruriyati. Baho - bozor munosabatlarining iqtisodiy kategoriyasi sifatida. Baho va baholashning mohiyati, ahamiyati va zaruriyati. Bahoning funksiyalari, turlari va tuzilmasi. Uning boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan bog'liqligi. Baholashni yaxshilashning asosiy yo'nalishlari. Tovar sotishni ko'paytirish. Maksimal foyda olish. Korxonalarining muayyan mavqeini saqlab qolish.

## 10. Korxona - mustaqil xo'jalik faoliyatini yurituvchi bozor sub'ekti

Milliy iqtisodiyotni rivojlanishi va aholi bandligini ta'minlashda korxonaning o'rni va roli. Zamonaviy korxonalar tasnifi. Korxonalarining birlashmalari. Korxonalarining mustaqilligi va mas'uliyati. Bozor munosabatlarini sharoitida davlat va korxonalar o'rtasidagi munosabat. Korxonalarining erkinligi va cheklanishlar. Korxonaning ichki va tashqi muhiti. Korxonaning ishlab chiqarish va bozor munosabatlarini (aloqalari). Raqobat sharoitida korxonalarining xarakatlari (o'zini tutishi). Xo'jalik yuritishning zamonaviy bozor tizimi tomonidan korxona faoliyatiga qo'yiladigan talablar. Korxonaning jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyati.

## 11. Korxonani tashkil etish va faoliyatini to'xtatish

Korxonani tashkil etishning huquqiy asoslari va tamoyillari. Korxonani tashkil etish tartibi va bosqichlari. Korxonani tashkil etish uchun zaruriy ta'sis hujjatlari. Tashkil etilayotgan korxonani davlat ro'yxatidan o'tkazish. Korxona mulki va rekvizitlari. Yangidan tashkil etilayotgan korxona faoliyatining boshlanishi va uning asosiy vazifalari. Korxonani qayta tashkil etish va faoliyatini to'xtatish. Korxonani qayta tashkil etish va tugatishning asosiy tamoyillari. Tugatish hay'ati va uning vazifalari.

## 12. Korxonani boshqarish

Boshqaruv korxona faoliyatidagi obyektiv zarurat. Boshqaruvning obyekti va subyekti. Boshqaruv munosabatlarini. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari. Boshqaruvning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularning mas'uliyati. Korporativ boshqaruvning o'ziga xos jihatlari, uning ustunliklari va kamchiliklari. Boshqaruvning asosiy funksiyalari. Boshqaruv xodimlarining kasb mahorati va kompetentligi. Boshqaruv tizimini ishlab chiqarishning samaradorligiga erishish va korxonaning iqtisodiy barqarorligiga yo'naltirish. Boshqaruv qarorlari samardorligini baholash.

## 13. Korxona faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilish

Biznes-rejalashtirish korxonani boshqarishdagi muhim qurol sifatida. Rejalashtirishni bozor mexanizmlari bilan mos kelishi. Rejalashtirishning uslubiy asoslari. Korxonada rejalashtirish turlari. Rejalar tizimi - rejalashtirish natijalarini aks ettirish sifatida. Rejaviy qarorlarni tayyorlash davri: strategik muammolarni taxlil qilish, korxona faoliyati kelgusi sharoitlarining prognozi, ishlab chiqarish topshiriqlarini va ularni amalga oshirish yo'llarini (vositalarini) aniqlash. Joriy reja - korxona faoliyatining asosiy hujjati sifatida. Korxona faoliyatida biznes-reja. Biznes-rejani ishlab chiqarishdagi asosiy vazifalari va uning tartibi. Biznes-rejani korxonani rivojlantirish strategiyasi bilan bog'liqligi. Biznes-rejaning asosiy bo'limlari va ko'rsatkichlari.

## 14. Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi

Samaradorlik korxona faoliyatining «oynasi» sifatida. Bozor munosabatlarini sharoitida samaradorlikning o'rni va ahamiyati. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishida korxonaning faoliyati. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezonlari va ko'rsatkichlari. Ishlab chiqarishning umumiy va solishtirma iqtisodiy samaradorligi. Xarajatlarning qoplanish davri - innovatsion yechimlarni, xarajalar samaradorligining muhim ko'rsatkichi sifatida. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari. 2024-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari va yo'nalishlari.

## 15. Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvati

Asosiy fondlarning mohiyati va ularning korxona faoliyatidagi o'rni. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy fondlari. Asosiy fondlar tuzilmasining ishlab

chiqarish samaradorligiga ta'siri. Asosiy fondlarni baholash, eskirishi va ta'mirlash. Asosiy fondlar amortizatsiyasi va amortizatsiya ajratmalari. Amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullari. Asosiy fondlarni korxonaning ishlab chiqarish quvvati bilan aloqasi. Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish ko'rsatkichlari, ularni hisoblash uslubi, Korxona asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni yaxshilash yo'llari.

#### 16. Korxonaning aylanma mablag'lari

Aylanma mablag'lar tushunchasi, ularning tarkibi va tuzilmasi. Korxona aylanma mablag'larining asosiy vositalardan farqi. Bozor munosabatlari sharoitida aylanma mablag'larni shakllantirish manbalari. Aylanma mablag'larni korxonaning iqtisodiy barqarorligiga ta'siri. Aylanma mablag'larni me'yoriylashtirish. Korxonaning aylanma mablag'larga bo'lgan talabini hisoblash. Korxonaning qarzga olingan va xususiy aylanma mablag'lari. Korxonaning ishlab chiqarish zahiralari. Zahiralarni turlari va ularni hisoblash uslubi.

Zahiralarni boshqarish va moddiy resurslarni tejash. Korxonada aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlarini va ularni hisoblash uslubi. Korxonaning aylanma mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

#### 17. Korxonada hodimlar, mehnatni tashkil etish va haq to'lash

Hodimlar va ularning korxona faoliyatidagi o'rni. Zamonaviy sharoitlarda korxonaning kadrlar siyosati. Korxona hodimlari, ularning tarkibi va tuzilmasi. Korxona hodimlari harakati va uni rejalashtirish. Ishchilar – korxona ishlab chiqarish personalining asosiy qismi. Korxonada mehnat unumdorligi va uni oshirish rezervlari.

Korxonada mehnatga haq to'lash. Mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlari. Mehnatni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish. Kadrlar siyosati va mehnatga haq to'lashni tashkil etishda korxonaning vakolatlari.

#### 18. Ishlab chiqarish xarajatlari, foyda va rentabellik

Ishlab chiqarish xarajatlari, foyda va rentabellik tushunchalari. Mahsulot bahosi va tannarxi. Mahsulot tannarxini rejalashtirish va kalkulyatsiyasi. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarning tasnifi. Ishlab chiqarish xarajatlari aniqlashning xorij tajribasi. Foyda korxona faoliyatining yakuniy natijasi sifatida. Foydaning ishlab chiqarish rentabelligi bilan aloqasi. Korxonada rentabellikni aniqlash uslubi. Foydani maksimalashtirish. Baho va xarajatlar tarkibini o'zgarishining foydaga ta'sirini tahlil qilish. Ishlab chiqarish rentabelligini oshirish yo'llari.

#### 19. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va tijorat siri

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning maqsadi va vazifalari. Korxona xavfsizligi konsepsiyasi. Korxonani iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tamoyillari. Korxona xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish va boshqarish. Xavfsizlik xizmatining funksiyalari va uning tuzilmasi. Korxonaning tijorat siri. Korxona tijorat

sirini himoya qilish samaradorligining korxona iqtisodiga ta'siri. Raqobatchilar to'g'risida ma'lumot olish usullari. Korxona tijorat sirini himoya qilish.

#### 20. Korxonaning biznes-rejasi

Biznes-rejaning funksiyalari bo'yicha iqtisodchilarining turli qarashlari. Biznes-rejaning mohiyati va vazifalari. Biznes-rejalarning ahamiyati va zaruriyati. Biznes-reja - yangi biznesning yuragi, xo'jalik boshqaruvining vositasi. Biznes-rejani tayyorlash bosqichlari. Biznes-rejaning loyiha varianti. Biznes-rejani rasmiylashtirish va tasdiqlash. Rasmiy va ishchi biznes-reja. Korxona missiyasi. Korxona etikasi. Korxona tanlab olgan qadriyatlar yo'nalishi. Biznes-reja maqsadlarini ishlab chiqish. Maqsadning biznes tizimidagi beshta funksiyasi. Maqsadlarning mazmuni va shakliga qo'yiladigan talablar. Biznes-rejaning axborotlar manbai. Biznes-reja tuzilmasini tanlash.

#### 21. Biznes-rejaning asoslanganligi va ishonchiligi

Biznes-rejani ishlab chiqishni boshqarishning zarurati. Biznes-rejani tuzishda rahbarning roli. Biznes-rejani ishlab chiqish muddatlari. Biznes-rejani resurslar bilan ta'minlanganligi. Korxona xodimlarning malakasi va kasbiy ko'nikmalar. Biznesni sug'urtalash. Biznes-reja muvaffaqiyatining omillari. Moddiy resurslar iqtisodi. Resurs bilan ta'minlashda talab qilinadigan bilimlar. Huquqiy tavakkalchiliklar. Ishlab chiqarish tavakkalchiliklari. Marketing tavakkalchiliklari. Moliyaviy, innovatsion, ijtimoiy tavakkalchilik. Tavakkalchilik oqibatlarini ob'ektiv o'lchanishi va qiymat bahosiga ega bo'lishining zarurati.

#### 22. Biznes-rejaning "Korxona tavsifi" bo'limi

Biznes-reja tituli va mazmuni. Biznes-rejaning kirish qismi. Rezyume. Korxonaning tarmoqdagi va bozordagi holati tahlili. Tarmoqni tavsiflash. Tadbirkorlik faoliyati sohasini tanlashning asosiy omillari. Korxonani baholash. Bozorni va asosiy raqobatchilarni tahlil qilish. Korxona tavsifnomasi, SWOT- tahlil. Korxona va uning raqobatchilarining kuchli va zaif tomonlari tahlili.

#### 23. Biznes-rejaning "Korxona mahsulotini tavsiflash" bo'limi

Mahsulotning umumiy tavsifi va uni baholash. Mahsulotni baholash usullari. Mahsulotning iqtisodiy ko'rsatkichlari. Tovar qondiruvchi ehtiyojlar. Sifat ko'rsatkichlari. Tovarining tashqi bezalishi. Eksport ko'rsatkichlari va uning imkoniyatlari. Mahsulotni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari. Mahsulot (tovar)ning hayotiylik davri ko'rsatkichlari. Ehtiyojlarni qondirish vositasi. Bozorni asosiy qonunlari. Bozorda raqobat va raqobatbardoshlik. Yangi mahsulotni tavsiflash va boshqa mahsulotlar bilan taqqoslash. Patent huquqlari. Mahsulotning kuchli va zaif tomonlari.

#### 24. Biznes-rejaning "Marketing rejasi" bo'limi

Marketing rejasi bo'limining ahamiyati. Zamonaviy marketingni tashkil qilish va uni kompleks o'rganish. Marketingning tahliliy funksiyasi. Marketingning boshqaruv va nazorat funksiyasi. Marketing strategiyasi. Tovar siyosati. Baho (narx) siyosati. Satish siyosati. Kommunikativ (axborot almashinuvi) siyosati. Marketing

budjeti. Ommaviy marketing. Differensial marketing. Yo'naltirilgan marketing. Assortiment siyosati. Yangi mahsulotni yaratish. Mahsulot sifati sohasidagi korxona strategiyasi. Dizayn strategiyasi. Tovarning bozor atributlari (belgilari). Servis xizmatini tashkil etish strategiyasi. Bozorni va sotuvni tadqiq qilish. Bozor sig'imini baholash. Bozorni segmentlash. Bozor o'zgarishlari va rivojlanish tendensiyalari tahlili, xususan, iqtisodiy, fan-texnika, demografik, ekologik, qonunchilik va boshqa omillarni tahlil qilish. Bozor tuzilmasini o'rganish. Sotuv hajmini bashorat qilish. Korxonaning baho strategiyasi. Bahoning shakllantirish usulini tanlash. Korxonaning baho taktikasi. Bahoni bozor sug'urtasi (kafolati)ni ta'minlash. Firma stili. Marketing kommunikatsiyalari kompleksi: reklama, sotuvni rag'batlantirish, shaxsan sotish, jamoatchilik bilan ishlash, to'g'ridan-to'g'ri marketing, sponsoring, mahsulot-pleysment, brending.

#### **25. Biznes-rejani "Ishlab chiqarish rejasini" bo'limi**

Ishlab chiqarish rejasining mazmuni, maqsadi va vazifalari. Ishlab chiqarish dasturi. Ishlab chiqarish texnologiyasi. Ishlab chiqarish kooperatsiyasi. Ishlab chiqarish jarayoni nazorati. Atrof muhit muhofazasi tizimi. Xarajatlar boshqarishi. Ishlab chiqarish rejasining ko'rsatkichlar tizimi. Yalpi mahsulot, tovar mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarishning hajmi. Ishlab chiqarish rejasini ishlab chiqarish quvvatlari bilan ta'minlanishi. Ishlab chiqarish rejasining resurslar bilan ta'minlanganligi. Resurslardan foydalanishni baholash. Ishlab chiqarishda resurslarga talabni aniqlashning normativ, statistik va empirik usullari. Kirishdagi, chiqishdagi, o'rtacha yillik va 10 yilga quvvati. Moddiy xarajalarni aniqlash. Aylanma mablag'lar tarkibi, aylanishi va ko'rsatkichlari. Aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyoj.

#### **26. Biznes-rejani "Tashkiliy reja va menejment" bo'limi**

Tashkiliy rejaning mazmuni, maqsadi va vazifalari. Korxonaning kadrlar siyosati. Tashkiliy tuzilma. Kadrlar salohiyati. Kadrlar malakasi va kasbiy ko'nikmalarining darajasi. Tashkiliy rejaning menejmentga bo'lgan talablari. Boshqaruv komandasi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish. Personalni boshqarish. Biznes-rejani ishbiarmonlik jadvali. Boshqaruvni tashkil etish. Xodimlarning huquqlari va majburiyatlari. Biznes-rejani amalga oshirish bo'yicha korxonadagi bo'limlarning o'zaro harakatini tashkil etish va tartibga solish. Boshqarishni tashkil etish.

#### **27. Biznes-rejani "Korxonaning moliyaviy rejasini"**

Moliyaviy rejaning ahamiyati, mazmuni va asosiy bo'limlari. Mahsulot sotish hajmini bashoratlash. Daromad va xarajatlar balansi. Aktiv va passivlar balansi. Moliyaviy reja sifatiga ta'sir etuvchi omillar. Moliyaviy reja ishlab chiqish muddati va davomiyligi. Ishlab chiqarish xarajatlari, soliq va to'lovlar. Korxona faoliyatining moliyaviy natijalari. Korxonaning moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlari. Korxonada foydani shakllantirish va taqsimlash. Moliyalash strategiyasi. Korxonani zararsiz ishlashi. Korxona salohiyati. Pul oqimlarini o'zlashtirish.

#### **28. Biznes-reja samaradorligini baholash**

Bo'limning ahamiyati va asosiy qismlari. Vaqt bo'yicha pul qiymatini hisobga olish. Pulning iste'mol va real qiymatini hisoblash. Samaradorlikni baholash ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari. Inflyatsiyani baholash. Diskontlash stavkasi. Diskontlash koeffitsienti. Real investitsiyalar samaradorligini baholash tamoyillari. Sof keltirilgan (diskontlangan) daromad. Daromadlilik indeksi. Ichki daromadlilik normasi. Xarajatlarning qoplanish davri.

#### **29. Ishlab chiqarish jarayoni va uni tashkil etish asoslari**

Ishlab chiqarish jarayoni tushunchasi va mazmuni. Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish tamoyillari. Ishlab chiqarish jarayonining ko'rinishlari. Korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari tavsifi: darajasi ko'rsatkichlari va iqtisodiy samaradorlik. Ishlab chiqarishni tashkil etish turlariga taqqoslama tavsif: amaliy, seriyali va shaxsiy. Ishlab chiqarishni tashkil etish usullari. Oqim ishlab chiqarish tushunchasi, mohiyati va ko'rinishlari. Oqim liniyalarining afzalligi va kamchiliklari. Ishlab chiqarish oqimini tashkil etishni mukammallash yo'nalishlari. Ishlab chiqarishni tashkil etish shaxsiy va partiyaviy usullariga tavsif va xususiyati. Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish normativlari. Ishlab chiqarish siklining davomiyligi, tayyor mahsulot va mehnat vositalari chiqarish hajmi, tugallanmagan ishlab chiqarish kattaligi. Korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish darajasini oshirishning asosiy yo'nalishlari.

#### **30. Korxona strategiyasini shakllantirish**

Ishlab chiqarishni tashkil etish strategiyasi konsepsiyasining mohiyati. Maqsadlarni shakllantirish tamoyillari. Tashqi muhitni hisobga olish va uni baholash usullari, korxonaning maqsadini aniqlovchi omillar. Raqobatchi faoliyatini tahlil qilish strategiyasi. Atrof muhitning o'zgarish sur'atlari va uning korxonaga ta'siri. Maqsadlar daraxti. Narxni shakllantirish mezonlari: aniqlik, qisqalik, o'lchovlilik, kelishilganlik. Korxonani rivojlantirishning bazaviy strategiyasi: o'sish strategiyasi (yangi bozorga kirish, bozorning rivojlanishi, geografik ekspansiya va firmalararo hamkorlik, tashqi iqtisodiy faoliyat), barqarorlik strategiyasi (iqtisod, strategik siljish), strategiyasi (boshqarish tizimini qayta ko'rish, moliyaviy qayta qurish, marketingni qayta qurish). Maqsadni amalga oshirish ketma-ketligi: qaror qabul qilish; maqsadni baholash; maqsadning qo'yilishi, atrofni tahlil qilish, resurs bilan ta'minlash, qarorni amalga oshirish, amalga oshirilgan qarorni baholash. Boshqarish zarurligi, mohiyati va ob'ektiv kerakligi. Boshqarish funksiyalari: rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik, koordinatsiya, nazorat. Boshqarish tamoyillari. Boshqarish usuli. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda tashkiliy tuzilma va mazmuni. Tuzilmalar turi: to'g'ri funksional, shtabli. Vakillik mohiyati. Korxona maqsad va vazifalariga erishishda xodimlar motivatsiyasini boshqarish. Korxona raqobatbardoshligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

#### **31. Korxonalarning bankrotligi, kelib chiqishi va bosqichlari**

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining real sektori korxonalarini moliyaviy qullab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarilgan

mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirishga qaratilgan chora tadbirlar. Korxonalarda inqirozning kelib chiqishi, uning turlari va bosqichlari. Korxona bankrotligi: uning maqsadi, turlari va bosqichlari.

### **32. Korxona to'lovga qobiliyati mohiyati va ko'rsatkichlari.**

Korxonaning to'lovga qobiliyati mohiyati va asoslari. Korxona majburiyatlari, uning turlari. Korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash. Korxona iqtisodiy samaradorligini baholash. Korxonaning to'lovga qobiliyatsizligi asosiy sabablari. O'zbekistonda korxonalar to'lovga qobiliyatsizligini sabablarini kelib chiqishining o'ziga xos xususiyatlari.

Korxonaning inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruvining tamoyillari. Moliyaviy hisobotlar - korxona moliyaviy holatini tahlil qilishning axborot bazasi sifatida. Moliyaviy xisobot ko'rsatkichni o'zaro bog'liqligini ta'minlash.

### **33. To'lovga qobiliyatsiz korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish**

Korxona moliyaviy holatini zaiflashuvi sabablari. Korxonani to'lovga qobiliyatsizlik sabablari. Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirish bosqichlari va chora-tadbirlari. Korxona faoliyatini moliyaviy sog'lomlashtirish maqsadida boshqaruvning optimal variantlari. Korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish uchun inqirozga qarshi dasturlar.

### **34. Korxonani hayotiylik faoliyatini ta'minlashda marketing**

Marketing tizimi. Marketing strategiyasi va konsepsiyasi. Korxona hayotiylik faoliyati va hayotiylik faoliyatini ta'minlashda marketing tizimidan foydalanish. Marketing samaradorligi va uni oshirish yo'llari.

### **35. Inqirozga qarshi boshqarishda inson omili**

Korxona va uning mehnat jamoasi. Korxonada ijtimoiy - mehnat munosabatlari. Korxonada ijtimoiy muhit, ijtimoiy muhitni yaxshilash omillari. Korxonada mulkka munosabat. Korxona daromadini taqsimlashda mehnat qiluvchi sub'ektlarni qatnashuvi. Ijtimoiy xamkorlik. Ijtimoiy-me'nat munosabatlari tartibga solish.

### **36. Korxona raqobatbardoshligi va mahsulot sifati**

Raqobatbardoshlik tushunchasi. Korxona raqobatbardoshligini ta'minlovchi omillar. Korxona raqobatbardoshligining ustun tomonlari: xodimlar, tovarlar va xizmatlar, tashkiliy tuzulma, tarmoq, mintaq, davlat. Mahsulot sifati korxona raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omil. Mahsulot sifati va ko'rsatkichlari. Mahsulot sifatining texnik darajasi. Sifatni nazorat qilish. Sifatni boshqarish. Sifatni halqaro standartlari ISO-9000 sifat sertifikat.

### **37. Korxona bankrotligining huquqiy asoslari**

Bankrotlik tushunchasi, xususiyatlari. Sanatsiya, Kuzatish. Moliyaviy sog'lomlashtirish. To'lovga qobiliyatsiz korxonalarni huquqiy boshqarish. Korxona

iqtisodiyotini barqaror va nobarqaror rivojlanishi omillari. Korxonalarda bankrotlikka qarshi mexanizmlarni ishlab chiqish.

### **38. Qurilish infratuzilmasi majmuida resurslardan samarali foydalanishni tashkil etish**

Qurilish ishlab chiqarish jarayonini elektrlashtirishdagi mavjud muammolar. Elektr energiya resurslaridan samarali foydalanish. Energetika infratuzilmasi. Qurilishda suv resurslaridan foydalanishda yangicha munosabatlar. Qurilishda suvni tejashda yangi texnologiyalardan foydalanish. Qurilish ishlab chiqarish faoliyatida iqtisodiy-ekologik muammolar va ularni hal etish yo'llari.

### **39. Qurilish infratuzilma majmuida tayyorlov tizimi va uni rivojlantirishning ahamiyati**

Qurilish ishlab chiqarishda tayyorlov tizimidagi mavjud muammolar. Ularni hal etishda infratuzilma faoliyatining o'rni. Qurilish firmalarini shakllantirish. Qurilish mahsulotlari eksportini kengaytirish muammolari va unga ta'sir etuvchi omillar. Axborot - kommunikatsiya infratuzilmasi.

### **40. Qurilish majmuasida infratuzilma faoliyatini rivojlantirish va istiqbolini belgilash**

Qurilish korxonalarida ustuvor yo'nalish deb belgilangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hamda xizmat ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatining o'rni. Qurilish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini baholash va istiqbolini belgilash.

### **41. Qurilishda investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va turlari**

Investitsiyalar tushunchasi, uning turli talqinlari. Jamg'armalar investitsiyalarning manbai sifatida. Jamg'armalarning mohiyati va investitsiyalar bilan aloqadorligi. Investitsiyalarning o'sishiga ta'sir etuvchi omillar. Investitsiyalar turlari. Investorlarning asosiy belgilari bo'yicha tasnifi. Moliyaviy va real investitsiyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik. Moliyaviy investitsiyalarning investitsion jarayondagi roli. 2017-2021 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturida o'rin olgan investitsiyalarni jalb etish yo'nalishlari.

### **42. Investitsion jarayonning mazmuni va asosiy bosqichlari**

Investitsiyalashning maqsadlari va yo'nalishlari. Investitsiyalash ob'ektlarini rejalashtirish va tanlash. Investitsiyalarni alohida ob'ektlar yoki dasturlar bo'yicha rejalashtirish. Mukammal kapital bozori va investitsion loyihadan foydalanish muddatlari belgilangan holatlar uchun investitsion modellar. Mukammal kapital bozori va investitsion loyihadan foydalanish muddatlari. Korxonaning ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyati rejalari bilan o'zaro aloqadorlikda investitsion rejalashtirish. Real investitsiyalarni amalga oshirish. Moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirishning xususiyatlari. Investitsion resurslar.

#### 43. O'zbekistonda moliya bozorlari va institutlari

Moliya bozorlari. Ssuda kapitali bozori va sherikchilik qimmatli qog'ozlari bozori. Qimmatli qog'ozlar bozori. O'zbekistonda moliya bozorlarining shakllanishi va faoliyati xususiyatlari. Moliya institutlari. O'zbekistonda moliya institutlarining yuzaga kelishi va rivojlanishi. Tijorat banklari. Kredit uyushmalari. Investitsiya fondlari. Moliya kompaniyalari. Moliyaviy instrumentlar: mohiyati, turlari, tasnifi. Moliyaviy majburiyatlar va ulush instrumenti. Birlamchi moliyaviy instrumentlar. Qarz shartnomasi, kredit shartnomasi, depozit va hisob ochish bo'yicha shartnomalar. Faktoring, moliyaviy lizing, bank kafolatlari shartnomalari. Forvard va fyuchers kontraktlari. Varrant. Svp. REPO operatsiyalari. Firmaning investitsion jozibadorligini baholashda moliyaviy instrumentlarning roli.

#### 44. Qurilishda kapital qo'yilmalar

Kapital qo'yilmalar real investitsiyalarning shakli sifatida. Kapital qo'yilmalar tushunchasining mohiyati va tasnifi. Kapital qo'yilmalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tuzilmasi. Kapital qo'yilmalarning tarmoq bo'yicha va mintaqaviy taqsimlanishi. Kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash tamoyillari. Kapital qo'yilmalarni davlat tomonidan tartibga solinishi va himoya qilinishi.

#### 45. Ko'chmas mulkka va qurilishga investitsiyalar kiritish

Ko'chmas mulkning investitsiyalash ob'ekti sifatidagi xususiyatlari. Ko'chmas mulk tushunchasi. Ko'chmas mulkka investitsiyalarni moliyalashtirish: shakllari va instrumentlari. Ishtirokchilar tasnifi. Ipoteka. Ko'chmas mulk lizingi. Ko'chmas mulk opsi. Ko'chmas mulk bozorida investitsion faoliyatni tartibga solish. Investitsion-qurilish kompleksi. Qurilishda pudrat munosabatlari. Tender savdolari. Kapital qurilish tushunchasi va uning texnik-iqtisodiy xususiyatlari. Kapital qo'yilmalarni amalga oshirishda kapital qurilishning roli. Asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish. Kapital qurilishning tashkiliy tuzilmasi va boshqarish asoslari. Qurilish ishlarini olib borish usullari. "Qulf kalitgacha" tizimi. Bosh pudratchi va subpudratchilar. Pudratchi qurilish tashkilotlarini shakllantirish va ularning tasnifi. Kapital qurilishdagi islohotlar.

#### 46. Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish

Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari tushunchasi va ularning tasnifi. Makro va mikrodarajada kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish. Firmaning o'z mablag'lari. Firma daromadlarining tuzilmasi. Firmaning jalb qilingan mablag'lari, ularning tuzilmasi. Qo'shimcha moliyalashtirish xajmi omillari. Budjet ajratmalari: tushunchasi, zarurati va imkoniyatlar. Kapital qo'yilmalarga budjet ajratmalarining xususiyatlari. To'g'ridan to'g'ri budjetdan moliyalashtirish.

#### 47. Qurilishda investitsion loyihalar va ularning tasnifi

Investitsion loyiha tushunchasi. Investitsion loyihalar tasnifi. Investitsiyalarning yo'naltirilganligi. Zarur bo'lgan investitsiyalar hajmi. Ko'zlangan samara turi. Munosabatlar, aloqalar turlari. Pul oqimlari turlari. Tavakkalchilik. Investitsion

loyihani amalga oshirish bosqichlari. Investitsion xarakterdagi qarorlar mantiqi va mazmuni. Tanlab olish va taqqoslash. Loyihani amalga oshirishni optimallashtirish. Investitsion dasturni shakllantirish. Loyihalarni hajm va vaqt bo'yicha optimallashtirish.

#### 48. Qurilishda investitsion loyihalarni moliyalashtirish usullari

Moliyalashtirishning turlari va shakllarining tavsifi. Loyihalarni qarz mablag'lari orqali moliyalashtirish. Ulushlar asosida loyihalarni moliyalashtirish. Moliyalashtirishning aralash shakllari. Moliyalashtirishning venchur tizimi. Obligatsiya qarzlar: asosiy parametrlari ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Lizing asosida moliyalashtirish: turlari, shakllari va ustunliklari. Budjet mablag'lari orqali moliyalashtirish.

#### 49. Chet el investitsiyalari va ularni jalb etish bo'yicha investitsion siyosat

Davlatning investitsion siyosati. Chet el investitsiyalari tushunchasi. O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb qilishning zaruriyati. Investitsion muhitning jozibadorligini oshirish. Iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini jalb qilishning huquqiy asoslari. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va portfel shaklidagi chet el investitsiyalari. Qurilish tarmoqlariga chet el investitsiyalarini jalb etish dinamikasi. Halqaro bozorlarga chiqishning asosiy shakllari orasida to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarining o'rni va roli. To'g'ridan - to'g'ri chet el investitsiyalari motivlari va gepotizalari. To'g'ridan - to'g'ri chet el investitsiyalarining makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy gepotizalari. Tashqi savdo nazariyasida to'g'ridan - to'g'ri chet el investitsiyalarining gepotizalari va modellari.

#### 50. Qurilishda innovatsion faoliyat tushunchasi, innovatsion faoliyat funksiyalari va innovatsiyalar tasnifi

Innovatsion faoliyat tushunchasi. Innovatsion loyiha, innovatsion jarayon tushunchalari. Korxonada innovatsion menejerning asosiy vazifalari. Innovatsion jarayonga ta'sir qiluvchi omillar. Innovatsiyalar tushunchasi va ularning tasnifi. Innovatsion tovarni yaratish jarayonining bosqichlari. Innovatsion faoliyatni boshqarish tizimlariga qo'yiladigan asosiy talablar. Ilmiy-tadqiqot va tajriba - konstruktorlik ishlarini boshqarish tizimi.

#### 51. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solinishi

O'zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatning huquqiy asoslari. Innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. Ilmiy izlanishlar, fundamental tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlovchi jam'armalar. Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlanishning nodavlat shakllari. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda xorij tajribasi. Qurilishi rivojlangan davlatlarda ilmiy-innovatsion rivojlanish modellari.

#### 52. Qurilishda innovatsion faoliyatning tashkiliy shakllari va uning xususiyatlari

Innovatsion tashkilotlar tasnifi. Kichik biznesning xususiyatlari. Ixtisoslashgan va kompleks innovatsion tashkilotlarining o'ziga xos xususiyatlari. Loyiha konstruktorlik tashkilotlari va maxsus konstruktorlik byuroolari, ilmiy-tadqiqot, marketing tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, qurilish-montaj tashkilotlari, texnopark, texnopolis kabi tashkilotlarda innovatsion faoliyatini olib borish. Innovatsion tashkilotlarning tuzilmalari tasnifi va vazifalari. Tuzilmaviy qayta qurish - tashkilotning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy vositasi.

### 53. Qurilishda innovatsion faoliyatning ilmiy asoslari

Asosiy iqtisodiy qonunlarning mohiyati va ularning statika va dinamikadagi ko'rinishlari. Innovatsion faoliyatga tizimli yondashuv: asosiy atamalar va tushunchalar. Tizimlar tasnifi va ularning mazmuni hamda xossalari. Tizimli yondashuvni qo'llashning qoidalari. Takror ishlab chiqarish - evolyusion yondashuv. Bench Markingning instrumenti. Funktsional yondashuv. Marketing yondashuvi. Normativ yondashuv. Integratsion yondashuv. Dinamik va jaryonli yondashuv. Optimallik asosidagi, direktiv va xatti-harakatlar asosidagi hamda vaziyatli yondashuv. Innovatsion boshqaruv tamoyillari va asosiy usullarining tasnifi.

### 54. Qurilish innovatsion faoliyatda tavakkalchilikni boshqarish asoslari

Tavakkalchilik tushunchasi va uning mohiyati. Tavakkalchilikning ob'ekti va sub'ekti. Tavakkalchilik tasnifi. Tavakkalchilikni pasaytirish usullari va omillari: tavakkalchilikdan qochish; tavakkalchilikni taqsimlash; tavakkalchilik manbalarini lokalizatsiyalash va diversifikatsiyalash; sug'urtalash va xedjirlashtirish. Tavakkalchilikni boshqarishning uslubiy asoslari. Tavakkalchilikning ichki va tashqi omillarining monitoringi va tahlili. Tavakkalchilikni baholash va uni optimallashtirish. Tavakkalchilikni boshqarish samaradorligini baholash.

### 55. Qurilishda innovatsion faoliyatning kompleks ta'minoti

Innovatsion faoliyatning huquqiy ta'minoti. Me'yoriy-uslubiy ta'minot. Normativ aktlar va standartlar. Qoidalar va yo'riqnomalar. Innovatsion faoliyatni boshqarishning resurs ta'minoti va resurslar turlari. Moliyaviy ta'minot, moliyalashtirishni tashkil etishning tamoyillari va vazifalari. Innovatsion faoliyatni boshqarishning axborot ta'minoti va innovatsiyalar statistikasi. Kommunikatsiyalar va axborotlar sifatiga bo'lgan asosiy talablar. Ilmiy-texnikaviy axborot resurslarini yaratish. Fan va innovatsiyalar statistikasining xalqaro standartlari.

### 56. Qurilishda yangiliklar va innovatsiyalar portfelini shakllantirish

Innovatsiya ob'ektlarini ularning nodirligi asosida raqobatbardoshligini ta'minlash asoslari. Raqobat ustunliklarini baholash. Turli ob'ektlarning raqobat ustunliklarini ta'minlovchi an'anaviy omillar. Tashqi va ichki omillar. Personal, mahsulot va xizmatlar. Tarmoq, mintaq va mamlakat miqyosida raqobat ustunliklarini ta'minlash. Raqobat qonunini tahlil qilish. Takshilot va uning raqobatchilarining raqobatbardoshligini tahlil qilish. Yangiliklar va innovatsiyalar portfelining tarkibi.

### 57. Venchur shaklidagi innovatsion biznes

Venchur kapitalining iqtisodiy vazifalari. Venchur kapitali va venchur biznesi. Tavakkalchilikka asoslangan biznesni moliyalashtirishning asosiy xususiyatlari. Venchur asosidagi moliyalashtirishning ustivor yo'nalishlari. Moliyaviy tavakkalchilikni minimallashtirishning asosiy tamoyillari. Venchur kapitali manbalarini. Venchur asosidagi biznesni davlat tomonidan tartibga solish. Tavakkalchilikka asoslangan investitsiyalarni moliyaviy baholash usullari va asosiy tushunchalari. O'zbekistonda venchur asosida moliyalashtirishning istiqborlari.

### 58. Yangiliklar dasturi va loyihalarni ishlab chiqish

Innovatsion loyiha tushunchasi va uning asosiy elementlari. Innovatsion loyiha turlari va uning mazmuni. Innovatsion loyihalarni ishlab chiqish tartibi. Innovatsion g'oyaning shakllanishi va loyiha maqsadlarini qo'yish. Loyiha g'oyasi bo'yicha marketing tadqiqotlari. Innovatsion loyihani rejalashtirish. Rejalar tizimi. Innovatsion loyihani yakuniy bosqichi. Loyihani topshirish va shartnomani yopish tartibi. Innovatsion loyihalarni boshqarish va amalga oshirishning dasturli-maqsadli usullari.

### 59. Intelektual mulk va intellektual mulk bozori

Intelektual mulkning mohiyati va ob'ektlari. Intelektual mulkning hozirgi sharoitdagi ahamiyati. Intelektual mulk bozorini rivojlanishining tarixiy asoslari. Intelektual mulk turlari. Intelektual mulk ob'ektlarini himoya qilishning huquqiy asoslari. Intelektual mulk ob'ektlarini sotish, ayirboshlash va uzatish shakllari. Litsenziya to'lovlarning asosiy to'lovlari va litsenziya bahosini baholash. Franchayzing. Nomoddiy aktivlarni baholash. Intelektual mulk huquqlarini buzilishi bilan kurash. Intelektual mulkni himoya qilishning jahon tajribasi. O'zbekistondagi intellektual mulk bozori.

### 60. Qurilishda mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligi

Mahsulot sifati iqtisodiy kategoriya sifatida va uning iqtisodiyotdagi ahamiyati. Mahsulot sifatining turli jihatlarining mohiyati. Mahsulot sifati ko'rsatkichlari tizimi. Qurilish mahsulotlari sifatini o'lchash usullari. Mahsulot sifati va raqobatbardoshligini belgilovchi omillar. Mahsulot sifatini oshirish iqtisodiy samaradorligini aniqlashning asosiy uslubiy tamoyillari. Sifatni yaxshilashning samaradorligini aniqlashda mahsulot sifatiga qilinadigan xarajatlarni rejalashtirish va hisobga olish. Korxona faoliyati natijalariga sifatning ta'siri.

### 61. Qurilishda mahsulot sifatini boshqarishda milliy va chet el tajribasi

Mahsulot sifatini boshqarish tushunchasi va mohiyati. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi korxonalarida sifatni boshqarishga tizimli yondashuv. Umumjaxon sifatni boshqarish tushunchasi va uning mazmuni. Sifatni boshqarishning AQSh tajribasi. Sifatni boshqarishning Yevropa tajribasi. Sifatni boshqarishning Yaponiya tajribasi. O'zbekiston korxonalarida sifatni boshqarish xizmati, ularning funksiyalari va vazifalari.

## 62. Standartlashning tashkiliy-huquqiy asoslari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida standartlashtirish – yuqori sifatli mahsulot tayyorlashning tashkiliy-texnikaviy asosi. Standartlashtirishning maqsadlari va vazifalari, Standartlar turlari va ularning tavsifi, Standartlashtirish tamoyillari tasnifi, Standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar va ularga quyiladigan talablar. Mahsulot sifati bo'yicha davlat nazorati idoralari va ularning vazifasi, O'zbekiston Respublikasi «Standartlashtirish to'g'risida»gi qonuni va uning sifatini ta'minlash tizimini tartibga solishdagi roli, Standartlashtirish ishlarini moliyalashtirish, Standartlashtirishning xorij tajribasi, Standartlashtirish bo'yicha Nemis milliy tashkilotining faoliyat tamoyillari, AQSh da standartlashtirishni rivojlantirish tajribasi, Standartlashtirish bo'yicha Fransiya assotsiatsiyasining standartlarni ishlab chiqish va amalga kiritish tajribasi.

### II qism

#### Stajyor-tadqiqotchilik va doktoranturaga o'qishga qabul qilish suhbatini tashkil qilish

Stajyor-tadqiqotchilik va doktoranturada o'qish uchun kirayotgan talabgorlar Qabul komissiyasi tomonidan 08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti” ilmiy ixtisosligi bo'yicha suhbatdan o'tadilar.

08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti” ixtisosligi bo'yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tayyorlash uchun doktoranturaga kirishda topshiriladigan hujjatlar ro'yxatidagi “tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi” da keltiriladigan ma'lumotlar ro'yxati.

Rejalashtirilgan dissertatsiya mavzusining nomi 08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti” ilmiy mutaxassislik pasportiga muvofiq yo'nalishlarga mos kelishi kerak. Batafsil reja quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- ilmiy muammo shakllantiriladi, uning dolzarbligi va ishning gipotezasi asoslanadi;
- 5 yildan ortiq bo'lmagan manbalar asosida o'rganilgan materiallarga asoslangan analoglar (dastlabki adabiyotlar tahlili) taqdim etiladi;
- tadqiqotning maqsadi, vazifalari va muammolarni hal qilish uchun taklif qilingan echimlar shakllantiriladi;
- ilmiy tadqiqot olib borish uchun asos (kafedra, laboratoriya, ilmiy-tadqiqot instituti, boshqa muassasalar), uning tadqiqotning talab qilinadigan hajmlari va ob'ektlarini taqdim etish qobiliyati ko'rsatilgan;
- tadqiqot ob'ekti, predmeti va rejalashtirilgan tadqiqotning o'ziga xos usullari va usullari ko'rsatiladi;
- kutilayotgan natijalar, qo'llash va amalga oshirishning mumkin bo'lgan doirasi (shakllar, bosqichlar, darajalar) ko'rsatilgan;
- ishni bajarishning kalendar muddatlari ko'rsatilgan (aniqrog'i, kalendar davrining oxiri va o'quv yoki tanlovni yakunlash uchun rejalashtirilgan dissertatsiya

kengashiga taqdim etishgacha bo'lgan barcha bosqichlar).

### Yakuniy qism

Bir necha talabgorlarning stajyor-tadqiqotchilikka, tayanch doktoranturaga va doktoranturaga kirish imtihonlari yoki suhbat natijalari bo'yicha ular tomonidan to'plangan yakuniy ballari teng bo'lgan taqdirda tanlov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qarori bilan tasdiqlangan “Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim to'g'risidagi nizom” va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi 606-son qarori bilan tasdiqlangan “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tartibi to'g'risidagi nizom” ko'zda tutilgan mezon asosida amalga oshiriladi.

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 20.12.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
2. Sh. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
3. Sh. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // Xalq so'zi. 15-yanvar 2017-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so'zi. 8-fevral 2017-yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni
6. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. – T.: “Ma'naviyat” nashriyoti, 2017. – 244 bet
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiy nochor korxonalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kengaytirish hamda tijorat banklarining ko'chmas mulk ob'ektlari negizida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 20.04.2017-yildagi PF-5022-son Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida”gi 31.03.2017 yildagi PF-4996-son Farmoni.
9. “Respublika oziq-ovqat qurilishini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 18.02.2016-yildagi PQ-2492-son.
10. “2016-2020 yillarda respublika farmasevtika qurilishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 16.09.2016-yildagi PQ-2595-son.

11. "2016-2020 yillarda qurilish industriyasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 28.09.2016 yildagi PQ-2615-son.

12. "Respublika qurilish materiallari qurilishini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 25.10.2016-yildagi PQ-2641-son.

13. "2017-2019 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj qurilishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 21.12.2016-yildagi PQ-2687-son.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Urgut», «G'ijduvon» «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida» gi 2017-yil 12-yanvardagi PF-4931-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 3-son, 40-modda.

15. A. Ortiqov Qurilish iqtisodi. Darslik. Toshkent, TDIU, 2015-236 b.

16. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 170 b.

17. Maxmudov E.X., Isoqov M.Yu. Biznes - rejalashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 160 b.

18. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. - 208 b.

19. B.Yu. Xodiyev, A.Sh. Bekmurodov va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. - T.: Iqtisodiyot, 2009. - 120 b.

20. Ortiqov A. va boshqalar. Qurilish korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004. - 256 bet.

21. Popov V.M. Sbornik biznes- planov: S rekomendatsiyami: uchebno - metodicheskoe posobie / pod red. d. e. n., prof. Popova V.M., i d. e. n. Lyapunov S.I. - 6-ye izd, ster. - M.: KNORUS, 2008. - 336s.

22. Ekonomika predpriyatiya: uchebnik / pod red. prof. Volkova O.I. i dos. Devyatkina O.V. - 3-ye izd., pererab. i dop. - M.: INFRA-M, 2008. - 601s.

23. R.A. Organizatsiya proizvodstva. - Infra-M, 2002. - 195 s.

24. A. Sh. Bekmurodov U.V. G'ofurov, O'zbekistonda Iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: Natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. - T TDIU - T 102 b.

25. www.gov.uz

26. www.mfer.uz

27. www.uz.uz

28. www.stat.uz

29. www.lex.uz.

30. www.sharh.uz

## 08.00.03 – "Sanoat iqtisodiyoti"

### Ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish sinovlari uchun savollar

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyati va qurilishi sohasida erishilgan dastlabki natijalar to'g'risida.

2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va sohada erishilgan dastlabki natijalar to'g'risida.

3. "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmonining maqsadi va vazifalari.

4. Xalqaro standartlashtirish va ISO-9001 seriyasidagi standartlarning maqsadi va vazifalari.

5. Korxonada aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlarini va ularni hisoblash ushbi.

6. Investitsion loyihani amalga oshirish bosqichlari. Loyihani amalga oshirishni optimallashtirish. Investitsion dasturni shakllantirish.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-martdagi "O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida" gi PF-4996-son farmoni mazmun-mohiyati va O'zbekistonda investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida.

8. Qurilish korxona (firma)lari o'rtasidagi ishlab chiqarish iqtisodiy aloqalarining turlari va ularni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.

9. Erkin iqtisodiy zonalarining faoliyat ko'rsatishi va ularni rivojlantirish sohasida davlat tomonidan tartibga solish masalalarini yoritib bering.

10. Korxonada mehnat unumdorligi va uni oshirish rezervlari.

11. Sertifikatlashtirishning maqsadi va vazifalari

12. Chet el investitsiyalari va ularni jalb etish bo'yicha investitsion siyosat. Qurilish tarmoqlariga chet el investitsiyalarini jalb etish dinamikasi.

13. Sanoatda intellektual innovatsiyalarning o'rni va uni rivojlantirish asoslari.

14. Texnoparklar va kichik sanoat zonalarini samaradorligini masalalari.

15. Milliy iqtisodiyotni rivojlanishi va aholi bandligini ta'minlashda qurilish tarmog'ining o'rni va roli.

16. Iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini jalb qilishning huquqiy asoslari.

17. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirish va prognozlashning ob'ektiv zaruriyati.

18. Standartlashtirishning maqsadi va vazifalari.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-apreldagi "Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5392-son farmonining mazmun-mohiyati to'g'risida.

20. Sanoatning «drayven» sohalarini rivojlantirish masalalari.

21. O'zbekistonda texnoparklar va kichik sanoat zonalarini rivojlantirish yo'llari.

22. Qurilishda tanlov (tender) savdolarini tashkil etish va o'tkazish jarayonlari.

23. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan sanoatni rivojlantirish bo'yicha bashoratlar va ularga erishishning asosiy yo'llari.
24. Marketing kommunikatsiyalari kompleksi: reklama, sotuvni rag'batlantirish, shaxsan sotish, jamoatchilik bilan ishlash, to'g'ridan-to'g'ri marketing, sponsoring, mahsulot-pleysment, brending.
25. Tender hujjatlari tarkibi va ularni ishlab chiqish tartibi.
26. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3698-son qarori mazmun-mohiyati va unda belgilangan ustavor vazifalar haqida.
27. Qurilishda ishlab chiqarish xarajatlari, foyda va rentabellik tushunchalari.
28. Sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar.
29. Sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash bo'yicha belgilangan vazifalar.
30. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 5544-son farmoni mazmun-mohiyati va Strategiyaning asosiy yo'nalishlari to'g'risida.
31. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezonlari va ko'rsatkichlari.
32. Metrologik faoliyat va uning huquqiy asoslari.
33. Investitsion-qurilish loyihasining asosiy bosqichlari va ularning shakllari.
34. Korxona faoliyatida biznes-reja. Biznes-rejani ishlab chiqarishdagi asosiy vazifalari va uning tartibini yoritib bering.
35. Asosiy fondlar tuzilmasining ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri. Asosiy fondlarni baholash, eskirishi va ta'mirlash. Asosiy fondlar amortizatsiyasi va amortizatsiya ajratmalari.
36. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining real sektori korxonalarini moliyaviy qullab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirishga qaratilgan chora tadbirlar.
37. Eksportchi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish borasida Davlat dasturida belgilangan vazifalar.
38. Korxonani tashkil etishning huquqiy asoslari va tamoyillari. Korxonani tashkil etish tartibi va bosqichlari.
39. Qurilish industriyasining ishlab chiqarish va resurs salohiyati va undan oqilona foydalanish yo'llari.
40. Korxonada ijtimoiy - mehnat munosabatlari. Korxonada ijtimoiy muhit, ijtimoiy muhitni yaxshilash omillari.
41. Zamonaviy sharoitlarda korxonaning kadrlar siyosati. Xodimlar va ularning korxona faoliyatidagi o'rnini.
42. Bankrotlik tushunchasi, xususiyatlari. Korxonalarda bankrotlikka qarshi kurashish mexanizmlari.
43. Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish ko'rsatkichlari, ularni hisoblash uslubi.

44. Kapital qo'yilmalar tushunchasining mohiyati va tasnifi. Kapital qo'yilmalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tuzilmasi. Kapital qo'yilmalarning tarmoq bo'yicha va mintaqaviy taqsimlanishi.
45. Investitsion-qurilish faoliyatini davlat tomonidan tartibga solinishi.
46. Asosiy fondlar tushunchasi. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy fondlari.
47. Aktiv va passiv asosiy fondlar. Asosiy fondlarni qayta baholash zaruriyati
48. Korxonada sifat siyosati va sifat to'garaklarining tashkil etishning maqsadi va vazifalari.
49. Qurilishda mehnat unumdorligini o'stirish omillari va rezervlari.
50. Investitsiyalarning tarkibi, tuzilmasi va zamonaviy yo'nalishlari.
51. Aylanma mablag'larni korxonaning iqtisodiy barqarorligi ta'siri. Aylanma mablag'larni me'yorlashtirish.
52. Loyihalash bosqichlari va loyiha hujjatlarining mazmuni.
53. Investitsiyalar, investitsiyaviy dasturlar va loyihalar.
54. Iqtisodiyot rivojida investitsiyalarning o'rnini va uni rivojlantirishning huquqiy asoslari.
55. Korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish uchun inqirozga qarshi chora-tadbirlar.
56. Sifatni boshqarishda xorijiy tajribalar va undan foydalanish.
57. O'zbekistonda korxonalar to'lovga qobiliyatsizligini sabablarini kelib chiqishining o'ziga xos xususiyatlari.
58. Korxona tijorat sirini himoya qilish samaradorligining korxona iqtisodiyotiga ta'siri.
59. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari va uni o'lchash usullari.
60. Qurilish boshqaruvining iqtisodiy, ijtimoiy, ruhiy va huquqiy usullari.